

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANISHIDA CHET TILINING AHAMIYATI

Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna

TerDPI o`qituvchi (PhD)

Mahammadqulova Marjona TerDPI magistranti

Annotatsiya: *Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda amaliy egallash mumkin. Bu nafaqat kattalar uchun, balki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ham juda foydali va samarali bo'ladi. Ayniqsa bolalarning aqliy va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida chet tillarning o'rni va ularning ijodiy tafakkurini kengaytirishga doir yangi usul va vositalar haqida boradi.*

Tayanch so'zlar: *ingliz tili, aqliy tarbiya, o'yin, ta'limiy o'yinlar, multimedia, multfilm, erta yoshda til o'rganish, faoliyat, mobil vositalar, ko'rgazmali vositalar, taqlid qilish, maqto'v berish va hokazolar.*

Bolalarning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarning katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xilma-xil faoliyatlar orqali o'z aqliy faoliyatlarini o'stirib boradilar. Masalan, o'yin orqali, xorijiy tillarni o'rganish orqali, jamoat tadbirlarida qatnashish orqali, turli xil mashg'ulotlar va to'garaklar orqali va hokazolar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Ayni maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan va intiluvchan bo'ladi. Ularning aqliy faoliyatini yanada boyitish maqsadida xorijiy tillarni bosqichma-bosqich o'rgatib borish juda yaxshi natija beradi. Ularda til ko'nikmalarini shakllantirish aqliy salohiyatini ham boyishiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni majburiy til sifatida emas, o'yin sifatida noan'anaviy usulda o'rgatgan yaxshiroqdir. Chunki majburan o'rgatish nafaqat bolalarni balki kattalarni ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun tarbiyachi bolalarga ularning qiziqishidan kelib chiqib o'rgatishi lozim. Masalan:

- Legolarga o'ynayotganda ularning rangini inglizcha so'zlar orqali har kuni ikkita yangi so'z bilan o'rgatish orqali

- Hayvonlar, o'simliklar dunyosini o'rgatmoqchi bo'lsak multimediali vositalar, videoroliklar orqali

- inglizcha multfilmlar qo'yib berish orqali (aynan nimanidir yodlatish emas, talaffuzni o'rgatish maqsadida)

- xonaning muhitini mashg'ulotga moslashtirish ya'ni ko'rgazmali vositalarni ham inglizcha variantlarini tayyorlash va boshqalar

Ushbu usullar orqali biz nafaqat bolaga til o'rgatamiz balki ularning aqliy salohiyatlarini ham o'stirib boramiz.

Bolaning aqliy va jismoniy qobiliyatlari, uning maqsad va orzulari - bularning barchasi bolalikdan boshlanadi. Agar biz boladan muvaffaqiyatli va o'zini o'zi ta'minlaydigan inson yetishib chiqishini istasak, unga kuchli va muvaffaqiyatli boshlash kerak. Bolaning aqliy rivojlanishi, bolaning sog'ligi ovqatlanish va turmush tarziga bog'liq bo'lganidek, bizning intellektual rivojlanish darajasi ham bolalikdagi qanday o'rganishimizga bog'liq. Inson miyasi hayot davomida rivojlanadi. Bachadonda shakllanishni boshlab, bola tug'ilgandan keyin ham o'sishda va rivojlanishda davom etadi. Kichkina odamning miyasida tug'ilgandan keyin o'zgarishlar yuz beradi, bu uning keyingi rivojlanishiga ta'sir qiladi. Miyaning o'sishi bilan uning hujayralari o'rtasida aqliy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan aloqalar paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanishning samarali kechishi uchun to'g'ri usul va uslublardan foydalanish lozim. Mobil vositalardan juda ko'p va nazoratsiz foydalanish ularda aqliy salohiyatni sezilarli darajada susaytiradi. Buning o'rniga ota-onalar ular uchun foydali bo'lgan kitoblardan foydalanishi yoki xorijiy tilda oid bo'lgan ko'rsatuv va multfilmlarni tomosha qilishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bundan tashqari MTT larning o'zida mashg'ulot jarayonida yoki to'garaklar tashkil qilish orqali ham bolalarga ingliz tilini o'rgatishimiz mumkin. Masalan mashg'ulot jarayonini o'laylik tarbiyachi bolalarga murojat qilmoqchi bo'lganda ham inglizcha so'zlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi " stand up" "sit down" " come here" look on the blackboard" look on the tv" " open the door" "open the window" yoki bolalarga maqtov berganda " good job" " very well" kabi. Ushbu so'zlarni bolalarga yodlatish emas, balki shunday murojat qilganda ular tushinishlari va to'g'ri bajarishlaridir. Bu jarayonda bolalarning aqliy qobiliyatlari ham to'g'ridan to'g'ri rivojlanadi.

Shuningdek, bolalar ertak qahramonlarini o'z tassavurida jonlantiradilar, obrazga kirishadilar hamda asosiy so'z va so'z iboralarni qo'llashni o'rganadilar. Bu albatta ingliz tilida so'zlarni tinglab tushunish va yod olingan so'zlardan jumlar tuzish orqali gapirish mahoratini ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavjud qahramon kiyimlari tasvirlanadi (fairy (pari), princess (malika), pirate (qaroqchi), king (qirol), clown (masharaboz)) hamda kiyim kiyishga doir so'z iboralarni qo'llaniladi: put on (kiyining!), zip up (zamokni qadang!), do the buttons up (tugmalarni qadang!), unbutton (tugmalarni yeching), unzip (zamokni tushiring). "Animals and their sounds ta'limiy faoliyat turi vositasida ingliz tilida hayvonot va hasharot olami tanishtiriladi. Bolalar hayvonlar ishtirok etgan turli qissa va hikoyalarni ham jon qulog'i bilan tinglaydilar. Hayvonlarning rangli surati tasvirlangan rasmlar orqali ingliz tilida hayvonlar va ularning harakatlari, tovushlari haqida o'rganish ham bolalar uchun zavqli bir masg'ulot hisoblanadi. Uy hayvonlari domestic animals : dog, cat, duck,

cock, hen, chicken, cow Yovvoyi hayvonlar wild animals : lion, tiger, wolf, rabbit, fox, snake, deer. Bolalarning ingliz tilida hayvon va hasharot nomlarini o'rganish va murabbiy bilan birga ularning haratlariga taqlid qilish bolaga olam-olam zavq bag'ishlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet-tilini o'rgatishning eng mashhur usullaridan yana biri axborot-kommunikatsiya usullaridan foydalanishdir. Kompyuter texnikasi, multimedia, audio va videodan to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyatida hikoyalar, ertaklar, kognitiv materiallardan foydalanish ta'limni individualizatsiya qilishga va maktabgacha yoshdagi bolalar nutq faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalari uchun ingliz-tilidagi ertak, hikoya yoki o'quv filmlarini tinglash yoki tomosha qilish ancha qiziqroq. Bolalar juda tez tilning semantik asoslarini anglaydilar va o'zlari gapira boshlaydilar. Agar o'qitishda to'liq immersiya usuli qo'llanilsa. Ushbu usul bolaning chet tili bilan muntazam va chuqur aloqasini nazarda tutadi. Bolaning ong osti g'ayrioddiy va sezgir bo'lib, hatto aniq natijalar hozir ko'rinmasa ham, bir-ikki yil ichida bolaning g'ayrioddiy rivojlangan lingvistik qobiliyatlari yuzaga chiqishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet-tilini o'qitishda foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya usullaridan biri multfilmlardir.

Multfilmlar - ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilish ularga pozitiv kayfiyat bag'ishlaydi. Shuning uchun ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarning pozitiv-komunikativ sifatlarini shakllantirish bilan birga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi:

bolada "nima uchun bu so'zlarni o'rganish kerak" degan savolga o'rin bo'lmaydi;
u multfilm tomosha qilishga qiziqadi va belgilar iboralarini takrorlashni yaxshi ko'radi;

multfilmlar bolaga nafaqat yangi so'zlarni o'rganish, balki inglizcha nutq tovushlarini o'rganishda ham yordam beradi;

Ushbu usullar orqali biz nafaqat bolalarga ingliz tilini o'rgatamiz balki ularda aqliy salohiyatni o'sishiga ham hissa qo'shgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarori.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., T.2016.

3. Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.

4. A.K.Xamrayevna . Maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qollash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi // - Innovation in the modern education system, 2023.-B.62-66

5. K.X Allaberdieva.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari // Innovatsii v pedagogike i psixologii, 2020. SI-2№ 3

6. Allaberdiyeva Kumri. Formation Of Creative Abilities For Students At Presidential Schools Based On Akmeological Approach // International Journal of Advanced Science and Technology. ISSN: 2005-4238 IJAST 2020.B. 2054-2057

1. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.

2. Sattarovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(20), 232-234.

3. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12 (79)), 10-13.

4. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(1), 6-9.

5. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 24-26.

6. Sattarovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(12), 96-100.

7. Sattarovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.

8. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ—ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 5(5), 13-17.